

RAHMATNING BARAKASI

Sultonmurod Olim

*filologiya fanlari doktori, Toshkent amaliy
fanlar universiteti professori*

Ism – Xudodan

Taqdirning o‘zi kabi, ism ham – Xudodan.

To‘g‘ri, uni kimdir – bobo, bibi, ota, ona... qo‘yadi.

Lekin o‘sha odamning ko‘ngliga aynan shu ismni solgan – kim, axir?

Qanday salomlashasiz?

Istiqlolimizni qo‘lga kiritib, muqaddas dinimiz o‘zimizga qayta boshlaganidan keyin salomlashishimiz ham o‘zgardi. O‘zini anglaganlar: “*Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakatuhu*”, – deb so‘rashadigan, javobiga: “*Vaalaykum assalom va rahmatullohi barakatuhu*”, – deyiladigan bo‘ldi. Quloqlar ham sekin-asta bunga o‘rgana bordi.

Lekin, yashirib nima qildim, kamina faqat mullolarimiz va ayrim hoji akalar bilangina shunday so‘rashaman. Shunda ham ba‘zan esdan chiqib, qisqa qilib qo‘ya qolinaveradi.

Ammo...

Yaqinlarim orasida shunday bir kishi borki, unga har gal, har safar hech erinmasdan: “*Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakatuhu*”, – deb salom beraman. Buning sababini maqolamiz so‘ngrog‘ida bilib olasiz.

Qahhor Rahmonov degan fakultetdoshimiz bor edi. Kamina kabi, u ham vobkentlik edi. Bir bosqich yuqorida o‘qirdi. Uning yotoqxonaga bir ozg‘in, bo‘ydorrog‘ bir sinfdoshi kelib turar edi. Bir-ikki ko‘rishganmiz.

O‘zi-ku juda xushmuomala, bosiq, oppoq yuzli, yumshoq yigit edi. Lekin ko‘zoynagi uni yana ham madaniyatli, savlatdor qilib ko‘rsatar edi.

Nizomiy nomidagi hozirgi Toshkent davlat pedagogika universitetining O‘zbek tili va adabiyoti fakultetini bitirib (1975), Buxoro viloyatining Vobkent tumanida maktab o‘qituvchisi, maktab direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, tuman xalq ta‘limi bo‘limi metodisti vazifalarida ishlagan (1975 – 1980).

Sidqu sobitlik

1980-yil edi. Bir kuni uni o‘zim ishlayotgan O‘zbekiston Fanlar akademiyasining hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida uchratib qoldim. Bolalar adabiyoti bo‘limiga ishga kiribdi. U tengilardan ko‘plarimiz, jumladan, Boqijon To‘xliyev, Zuhridin Isomiddinov, Nusratulla Jumaxo‘ja,

Nishonboy Husanov, Ziyodulla Hamidov, Is’hoqxon Nosirov, Anvar Jabborov, Akif Bagirovlar keyinchalik boshqa ishlarga o‘tib ketdik. Lekin bu birodarimiz hozirgacha sidqu sobitlik bilan shu ilmiy dargohda ishlab kelyapti. U bu dargohda laborant, katta laborant, stajyor-tadqiqotchi, kichik ilmiy xodim, ilmiy xodim (1980 – 1994), Institut ilmiy kotibi (1994 – 2018), “XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon” bo‘limi mudiri (2018 – 2021) bo‘ldi, hozir katta ilmiy xodim (2021-yildan).

U O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy kengashi, Dsc.02/30.12.2019.Fil.46.01 raqamli ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar, “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali tahrir hay’ati a’zosi a’zosi, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.02/30.12.2019.Fil.46.01 raqamli ilmiy kengash ilmiy kotibi.

“*Dissertatsiya*” degani ilm-fanning shunday bir qoliplangan janriki, uncha-buncha tadqiqotchi uning injiqdan-injiq talablariga dosh berolmaydi. Ko‘pchilik, hatto, o‘rganolmaydi ham. Biroq qolipga tushirmasangiz, ish yoqlanmaydi ham. Nima qilmoq – kerak? Ana shunday ilmiy darajalar beruvchi kengashlar ilmiy kotiblari dissertantlar joniga oro kiradi. Tadqiqotchi istaydimi-istamaydimi, qat’i nazar, ilmiy kotib ishni o‘sha OAK talablari asosida shakllangan qolipga soldiradi.

Ammo buning o‘zi ham mehnat-mashaqqat talab qiladi-da.

Bu jihatdan qahramonimiz, eh-he. Ko‘p yillardan beri qancha-qanchalarning duosini olgan.

G‘alvir

Mana, endi ana shu 44 yillik mashaqqatli ilmiy-ijodiy mehnat natijalarini bir g‘alvirdan o‘tkazish mahali keldi. Xirmon chakana emas.

Orada atoqli navoiyshunos, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, Beruniy mukofoti sohibi, professor Abduqodir Hayitmetov ilmiy rahbarligida “*XX asr boshlaridagi o‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi*” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi (1994). Avval katta ilmiy xodim (2009), keyin professor (2022) ilmiy unvoniga sazovor bo‘ldi. Ilmiy rahbarligida 3 fan nomzodi, 5 falsafa doktori dissertatsiya yoqladi. 9 fan nomzodi va falsafa doktori dissertatsiyasiga rasmiy opponentlik qildi.

U ilmiy izlanishlari o‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyoti, adabiy aloqalar va tarjimashunoslik, xususan, o‘zbek bolalar adabiyoti yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib boradi. Ayniqsa, bolalar adabiyoti bo‘yicha respublikamizda yetakchi mutaxassislaridan hisoblanadi. U mustaqil holda va hammualliflikda 10 dan ortiq monografiya va risola e’lon qildi. Respublikamiz va xorij matbuotida 270 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari chiqdi. 60 dan ortiq respublikaviy, 10 dan ortiq xorijiy ilmiy anjumanda ma’ruzalar bilan ishtirok etdi.

Uning “*Jonajonim, she’riyat. 80-yillar o‘zbek bolalar she’riyati haqida ba’zi qaydlar*” (1997), “*O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi*” (2004) monografiyalari bosildi, hammualliflikda “*Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar*” (2014, 2017), “*Badiiy tasvir mahorati*” (2021) kitoblari chiqdi.

Ayniqsa, uning uch bor (2019, 2021, 2022) chop etilgan O. Safarov va B. Jamilovalar bilan hamkorlikda chiqargan oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun “*Bolalar adabiyoti*” darsligi hozirgi kunda ham eng muhim dastur il-amal vazifasini o‘tab kelyapti.

Abdulla Avloniyning “*Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom*” risolasini lug‘atlar va so‘ngso‘z ilova qilgan holda nashrga tayyorlab, chop ettirdi (2018) ham.

Haqiqiy olim shunday ko‘p ilmiy masalalarga duch keladiki, ularning barini o‘zi hal qilib berolmaydi. Umr yetmaydi-da. Uning ishlarida ilgari surilgan ilmiy qarashlar shogirdlari tomonidan muvaffaqiyat bilan davom ettirilmoqda, shu tariqa o‘rtaga qo‘yilgan talay muammolar yechim topyapti. Uning ilmiy rahbarligida bir necha tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi ustida ish olib borayotir.

Professionallik

Bir gapni aytsak, hech kimning ko‘ngliga tegmasin. Ochig‘i, bizda diplomlilar juda ko‘p-u, aksincha, professionallar – juda kam. *Professional bo‘lish – oson*, deb o‘ylaysizmi? Bir sahifalik haqiqiy ilmiy matn bitish uchun, eh-he, bilasizmi, qancha ilmiy, imloviy, uslubiy qonun-qoidani bilish – kerak!

Qahramonimiz – professional tadqiqotchi. U – o‘zbek bolalar adabiyoti tarixi va hozirgi o‘zbek bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, adabiy aloqalar, tarjima tarixi va nazariyasi bo‘yicha taniqli mutaxassis.

U o‘zbek bolalar adabiyotining paydo bo‘lish, shakllanish va taraqqiyoti tarixi muammolarini o‘rganib, umumlashtirgan. XX asr va istiqlol davri o‘zbek bolalar she’riyati takomil xususiyatlarining ilmiy-nazariy jihatdan o‘ziga xos belgilarini ko‘rsatib bergan. Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, G‘afur G‘ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Qudrat Hikmat, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Miraziz A‘zam, Safar Barnoyev, Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Hamza Imonberdiyev, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbar singari shoirlar ijodining o‘zbek bolalar she’riyati takomilidagi o‘rni va mavqeini ko‘rsatib berdi.

Uning professionalligi zamirida esa tartib-intizomlilik, sarishta-saranjomlik yotadi. Nozik o‘quvchi sezib turibdiki, ruscha “*akkuratnost*” demoqchi bo‘lmiz. Qurg‘ur shu so‘zning ruschadagidek jaranglaydigan o‘zbekcha ifodasini topolmayapmiz-da.

Do‘stni safarda sinang!

Buxoroda: “*Odamni rahu rastada sina!*” – degan gap – bor. “*Rahu rasta*” umumiy ma’nodagi safarni anglatadi. Adabiy tilimizda ham: “*Do‘stni safaru hazarda sinamoq – kerak*”, – degan hikmat – mavjud. Bu og‘aynimiz bilan ko‘p-ko‘p safarlarga birga chiqqanmiz. Yaxshi suhbatdosh, xushmuomala sherik. Respublikamizning turli mintaqalaridagi shahar va tumanlarda o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda el oldida bir ma’rifatli-ma’naviyatli ziyoli sifatida ma’ruzalar o‘qigan, suhbatlar o‘tkazgan.

Bu birodarimiz bilan Toshkentning Eskishaharida bir necha yil yonma-yon mahallada turganmiz. Issiq-sovuq kunlarimizda yelkadoshlik qilgan. Unda birovga yaxshilik qila olish fazilati – bor. Buni ko‘p sinaganman.

“Dars o‘tishdan maqsad maosh olishgina emas-ku!..”

Bir kuni rahmatli olim va shoir ukam, Buxoro davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi Mirzaahmad Olimov auditoriyaga kirsam, talabalar yo‘q emish. Vaziyatni bilish uchun dekanatga boribdi. Shunda yana bir muallim ham guruhi auditoriyada yo‘qligini aytish uchun kirgan ekan. “*Falon yuqori tashkilotdan majlisga chaqirishdi, bu ikki guruh talabalarini o‘sha yoqqa yubordik*”, – deyishibdi dekanatdagilar. “*Ur-ra!!! – debdi shunda haligi o‘qituvchi, – yaxshi bo‘libdi-da, o‘zi uyimda usta ishlayotgan edi*”. Ukam asabiylashib, dekan muoviniga baqira ketibdi: “*Nega guruhimni majlisga yuborasizlar? Axir, bugun ularga Gadoiy hayoti va ijodini o‘rgatishim kerak edi*”. Shunda dekan muovini pinagini buzmay: “*Ha, xo‘p, Gadoiyning keyingi darsda o‘tib beraverasiz. Shunga shuncha otago‘ri – qozixonami?*” – debdi. Mirzaahmad badtar tutabdi-da: “*Keyingi darsda Lutfiyni o‘tishim – kerak-ku ularga!!!*”

Bizning qahramonimiz ham – ana shu ukamiz toifasiga kiradigan muallimlardan. Yaqinda universitetlarimizdan biri uni mutaxassis sifatida magistrnlarga dars o‘tish uchun chaqirishibdi. Ikki-uch marta darsga kirib, ariza yozib, bo‘shab ketibdi. Sababini surishtirishsa: “*Men faqat maosh olish uchungina dars o‘tmayman-ku! Magistrnantlarning eshitgisi, o‘qisi, ilm o‘rgangisi – yo‘q. Aftidan, ular faqat diplom olish uchungina darsga kelib-ketishadi*”, – debdi.

Ehtimol, bu birodarimizning Fanlar akademiyasi institutiga sadoqatining asl sabablaridan biri ham shudir.

Sakkizinchi daha

O‘tgan yilning 22-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi raisi Shavkat Mirziyoyev Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisida “Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak” mavzusida nutq so‘zladi.

Unda, jumladan, bolalar adabiyotini rivojlantirishga alohida diqqat qaratib: *“Albatta, bilimdon, zukko olimlarimiz, dunyo madaniyatiga juda katta hissa qo‘shayotgan vatandoshlarimiz ko‘p. Lekin, afsuski, ular bolalar olamiga yaqin emas. Vaholanki, dunyoga mashhur olimlarning ko‘pchiligi bolalarga atab kitoblar ham yozishgan. ...Fursatdan foydalanib, men o‘z sohasida ilmiy maktab yaratgan hurmatli olimlarimizni adiblar va nashrlar bilan hamkorlikda bolalar uchun qiziqarli va sermazmun kitoblar yaratishga chaqiraman. Bu ishlarni rag‘batlantirish, yangi bosqichga ko‘tarish uchun kelgusi yili mamlakatimizda **Xalqaro bolalar adabiyoti ko‘rgazmasini tashkil etamiz**”, – dedi.*

Bu da‘vat bolalar adabiyotining tadqiqotchi, jonkuyar targ‘ibotchisi bo‘lmish qahramonimizni ham yangi-yangi g‘oya va loyihalar ustida ishlashga undaydi, albatta.

Keling, endi, kamina nega u bilan har gal: *“Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakatuhu!”* – deb salomlashishim sirini oshkor eta qolay: bu birodarim – to‘rt farzandning otasi, o‘n nevaraning bobosi, 2-darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni sohibi (2000) Rahmatulla Barakayev!

U shu kunlarda muborak yetmish yoshni to‘ldirdi.

Xush kelibsan, sakkizinchi daha, assalomu alaykum va rahmatullohi va barakatuhu!